

**TILSHUNOSLIKDA BAHO KATEGORIYASI O'RGANILISHINING AYRIM  
MASALALARI**

**Pardaev Zafar,**

dotsent, filologiya fanlari nomzodi,

**Esirgapova Gulsanam,**

katta oqituvchi

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika universiteti,

Chirchiq, O'zbekiston

Maqola zamonaviy tilshunoslikda baholash kategoriyasi muammolariga bag'ishlangan. Unda baholash kategoriyasini aniqlashga doir turli yondashuvlar, shuningdek baholashning ifoda vositalari va uning funksional xususiyatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** baholash, kategoriya, ifoda vositalari, baholovchi ma'nolar, subyekt, baholash semantikasi.

Insonning nutqiy faoliyatida baholash munosabatining o'rni va ahamiyati masalasi azaldan tadqiqotchilar diqqat e'tiborida bo'lib kelgan. Inson o'z hayoti, faoliyati davomida tabiat va jamiyatdagi turli voqea-hodisalar, qonun-qoidalarni o'rganish bilan obyektiv olam manzarasi to'g'risidagi tasavvur va bilimlarini boyitib boradi. Hayotiy tajribaga asoslangan xulosalar hamda tashqi har xil ta'sirlar tufayli yuzaga keluvchi hissiyotlar natijasida inson ularga o'z munosabatini bildiradi, turli nuqtai nazardan baholaydi. Shu asosda inson nutqini baholovchi faoliyat sifatida tadqiq etish falsafa, mantiq, psixologiya, tilshunoslik fanlari uchun birday qiziqarli va ayni damda dolzarbdir [6, 6-bet]. Baholash – universal kategoriya, chunki yaxshi va yomon haqidagi tasavvurlar mavjud bo'lmagan til deyarli yo'q. Shuning uchun ham baho konseptini murakkab hodisa sifatida inson hayoti va faoliyatining hamma qirralari bilan bog'liq holda tadqiq etish uning ijtimoiy mohiyati haqida muayyan tasavvurlar berish imkoniyatini beradi.

Baholash kategoriyasi zamonaviy lingvistikada keng o'rganilmoqda. Ushbu mavzuga bo'lgan qiziqish susaymayapti, bu esa baholash kategoriyasining o'zi hamda baholovchi ma'nolar doirasini aniqlash va baholash kategoriyalarini tahlil qilishga oid yondashuvlarning xilma-xilligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, baholash kategoriyasi anglash va tahlil qilish uchun ancha murakkab hodisa bo'lib, u nafaqat lingvistikada, balki falsafa, etika, mantiq va aksiologiya doirasida ham tadqiq etiladi. Baho tushunchasi tilshunoslikka mantiq ilmidan kirib kelgan bo'lib, unda bahol qadriyatlar haqidagi hukm sifatida talqin etilgan. Qadriyat yoki yaxshilik deganda, odatda, har qanday istak, ehtiyoj, qiziqish, intilish va shu kabilarning obyekti bo'lgan barcha narsalar tushuniladi [4,2-bet]. Baholash kimga yoki nimagadir nisbatan bo'lgan qadriyatli munosabatni ifodalaydi va u obyektning fazilatlari hamda ijobiy sifatlarini tan olish yoki inkor etishga asoslanadi.

“Baho – bu obyektning shunday aniqlashki, bunda obyekt subyekt ehtiyojlarini qondira olishi sharti bilan uning subyekt uchun ijobiy (yoki salbiy) ahamiyati namoyon bo'ladi” [4,12-bet]. Aynan baholashning mana shu (tor) talqini tilshunoslikda eng keng tarqalgan. Voqelikdagi turli hodisalarni baholash insonning kognitiv faoliyatidagi eng muhim tarkibiy qismlardan biridir. Shu sababli N.D. Arutyunova baholashni “asl insoniy kategoriya” deb ta'riflaydi; u “insonning jismoniy va ruhiy

tabiatiga, uning mavjudligi va sezgi-tuyg'ulariga bog'liq bo'lib, uning tafakkuri va faoliyatini, boshqa insonlar va voqelik predmetlariga munosabatini, san'atni idrok etishini belgilaydi" [1,5-bet].

Tilshunoslikda baho idrok etuvchi subyektning obyektiv voqelikka bo'lgan qadriyatli munosabatini tilda aks ettirishdan iborat bo'lgan universal kategoriya sifatida tushuniladi. Obyektiv olamning inson ongida aks etishi o'z mohiyatiga ko'ra baholovchi munosabatdir. "Bilish jarayoni inson faoliyatining muayyan bir bo'lagi sifatida o'z tabiatiga ko'ra baholovchi, deb ataladigan jihatni o'z ichiga oladi. Bu esa subyekt tomonidan bayon etilayotgan predmetga nisbatan tafakkur jarayonidan (idrok etish, tushunish, umumlashtirish, xulosa chiqarish va hokazo) boshqa narsa emas bo'lib, eng keng ma'noda aynan 'baholash'ni tashkil etadi. Shunday qilib, baholash bilish subyektini bilan obyektiv olam o'rtasida qandaydir aloqa yuzaga kelgan barcha holatlarda mavjud bo'ladi" [5,142-b.]. Buni alohida ta'kidlash lozimki, tilshunoslarning baholash mohiyatini anglashga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Bu holat baholashning ifoda vositalari nihoyatda keng doiraga ega ekanligi va u grammatik tizimning barcha darajalarida faoliyat ko'rsatishi bilan izohlanadi. N.Y. Shvedova baholashni tilning to'rtta "ibtidoiy" funksiyasidan biri sifatida talqin qilgan bo'lib, u til lug'atini, frazeologik vositalarini va grammatikasini tashkil etadi, deb hisoblaydi.

Zamonaviy tilshunoslikda baho kategoriyasini o'rganishning asosiy yo'nalishi baholovchi ma'nolarni aniqlash va ularni ifodalash usullarini belgilash bilan bog'liq. An'anaviy tilshunoslikda asosiy e'tibor baholashning semantikasi va tuzilishini tahlil qilishga, baholovchi tuzilma unsurlarini o'rganishga qaratilgan edi. Keyinchalik baho kategoriyasini o'rganish baholovchi ma'nolarning semantik, pragmatik va funksional xususiyatlarini tadqiq etish hisobiga kengaydi. Bizning fikrimizcha, baho pragmatika bilan juda chambarchas bog'liq. Xususan, so'zlovchi tinglovchiga ta'sir ko'rsatib, bildirilgan bahoga nisbatan unda mos munosabatni shakllantirishga intiladi. Eng aniq bahoni ifodalash uchun til vositalarini tanlash, ya'ni nutqiy ta'sirni amalda ro'yobga chiqarish vositalari pragmatikadan tashqarida – til sintaktikasi va semantikasi doirasida bo'lsa-da, so'zlovchining tilning "mavjud repertuari"dan eng aniq va eng ishonarli vositalarni tanlashga bo'lgan intilishi allaqachon pragmatika sohasiga taalluqlidir [3, 11-bet].

Zamonaviy tilshunoslik bosqichida semantika va pragmatikaning o'zaro munosabati muammosi tilshunoslikning markaziy masalalaridan biriga aylanmoqda. Lingvistik adabiyotlarda baholash ko'pincha subyektiv kategoriya sifatida talqin qilinadi. Jumladan, N.D. Arutyunova baholash atrof-muhit hodisalariga bo'lgan subyektiv munosabatni ifodalaydi, obyektiv xususiyatlarni bevosita aks ettirmaydi, deb hisoblaydi. Bunday yondashuv baholovchi ma'nolarni inson omili bilan, ya'ni insonning obyektiv voqelikni idrok etishi va idrok etilayotgan hodisalarga bergan bahosi bilan uzviy bog'liq holda o'rganishni taqozo etadi. Shu o'rinda shuni ayib o'tish lozimki, ushbu masala yuzasidan qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Jumladan, E.M. Wolf baholash predmetning o'ziga xos xususiyatlarini nazarda tutadi, ya'ni u obyektiv komponentni ham o'z ichiga oladi, deb hisoblaydi. E.M. Volfning fikricha, baholash subyektini baholanayotgan obyektga nisbatan faqat shaxsiy munosabatga emas, balki obyekt haqidagi stereotipik tasavvurlarga ham tayangan holda xulosa chiqaradi [3, 23-bet]. Individual baholash holatida muallif nafaqat o'z fikrini, balki muayyan sotsiumda mavjud bo'lgan umumiy e'tirof etilgan holatni ham ifodalaydi. Demak, subyektiv baholashda ham baholovchi subyekt uchun me'yoriy hisoblangan holat haqidagi tushuncha mavjud bo'ladi. Shunday qilib, baho berish mezonini sifatida baholovchi subyektning muayyan sotsiumda mavjud va qabul qilingan holat haqidagi stereotipik tasavvuri namoyon bo'ladi.

Bahoni semantika nuqtayi nazaridan o'rganishda subyektiv va obyektiv omillar bir-biri bilan uzviy bog'liq ekanligini aniqlash imkonini berdi. Aytish mumkinki, obyektiv va subyektiv jihatlar bitta hodisaning, ya'ni voqelikni bilish va aks ettirish jarayonining ikki tomonidir. Subyektivlik obyektivlik asosida shakllanadi. Obyektiv voqelikda mavjud bo'lgan hodisalar asosida ularning subyektiv bahosi vujudga keladi.

Baholashdagi obyektiv va subyektiv omillarni ko'rib chiqish ma'no tarkibidagi baholovchi va deskriptiv (tasviriy) komponentlarni farqlashni taqozo etadi. Baholovchi va deskriptiv komponentlarning o'zaro munosabati masalasi nihoyatda munozaralidir. Bu borada, bizningcha, N.D. Arutyunovanning fikri ishonchliroqdir. U ikki turdagi ma'nolar o'rtasidagi asosiy farq shundaki, "deskriptiv ma'nolar til bilan atrof-muhit o'rtasidagi munosabatni mustahkamlaydi, baholovchi ma'nolar esa atrof-muhit bilan uning ideallashtirilgan modeli o'rtasidagi munosabatni, ya'ni bu ikki olam o'rtasidagi moslik yoki nomoslikning mavjudligi (yoki yo'qligi)ni tavsiflaydi", deb hisoblaydi [2, 182-bet].

Deskriptiv va baholovchi ma'nolar o'rtasidagi bog'liqlik eng to'liq tarzda sifatlarning semantikasida namoyon bo'ladi, chunki ularning asosini belgili (xususiyatga oid) semantika tashkil etadi.

Sifatlar orqali yuzaga keladigan emotsional baho, har qanday baholovchi tuzilma singari, ikki omilni, obyektiv va subyektiv omillarni aks ettiradi; u baholovchi subyektivlikning obyektga va baho qaratilgan obyekt xususiyatlariga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Subyektivlikning obyektga munosabati "yaxshi / yomon" mezoni asosida baholanadi. Obyektiv va subyektiv omillarning o'zaro ta'siri baholash shkalasi tuzilmasining asosini tashkil etadi. Ushbu shkala "kontinuum" bo'lib, unda belgi darajasi doimiy ravishda ortib yoki kamayib boradi [3, 54-bet]. Emotsional baholashda shkalaning boshlang'ich nuqtasi sifatida me'yoriy, odatiy holat qabul qilinadi. Me'yor baholash shkalasining obyekt haqidagi stereotipik tasavvurlar va muayyan belgi joylashgan qismi bilan bog'liq bo'ladi. Baholash shkalasining bir tomonida "+" belgili sifatlar, ikkinchi tomonida esa "-" belgili sifatlar joylashadi. "-" belgili sifatlar me'yordan chetga chiqishni, "+" belgili sifatlar esa me'yorga mos kelishni bildiradi. Shu tariqa, sifatlar semantikasining o'zida bayonning sof semantik va pragmatik rejalarining o'zaro bog'liqligi namoyon bo'ladi. Pragmatik jihat baholovchi xususiyatga ega bo'lgan sifatlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Umuman olaganda, baholash inson lingvokognitiv faoliyatining mahsuli hisoblanadi. U murakkab jarayon sifatida tildagi ko'pgina birliklar qatori semantik innovatsiyalarga, xususan so'zlarning ko'p ma'nolilik kasb etishi, ko'chim asosida yuzaga keluvchi metonimiya, metafora kabi hodisalarga ham taalluqlidir. Ular nutq jarayonida obrazlilikni ta'minlash, nutq obyektini baholash vazifasini ham bajaradi.

#### Adabiyotlar:

1. Арутюнова Н.Д. Аксиология в механизмах жизни и языка / Н.Д.Арутюнова // Проблемы структурной лингвистики. – М., 1984. – 287 с.
2. Арутюнова Н.Д. Язык и мир человека. – М.: Языки русской культуры, 1999. I-XV. – 182 с.
3. Вольф Е.М. Функциональная семантика оценки. – М.: Наука, 1985. – 228 с.
4. Ивин А.А. Основания логики оценок. – М.: МГУ, 1970. – 229 с.

5. Колшанский Г.В. Соотношение субъективных и объективных факторов в языке. – М., Наука, 1975. – 232 с.

6. Pardayev Z. O'zbek tilida baho kategoriyasining pragmatik talqini. Monografiya. - Samarqand, 2024. 152-bet.

